

GESHTALT ATAMASI VA UNING TILSHUNOSLIKDAGI O‘RNI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

SamDU 1-bosqich magistranti

Fayzullayev Shohrux

Annotatsiya: *Globalashuv davrida o‘zbek tilining xalqaro miqyosdagi mavqeyini oshirish hayotiy zaruratga aylanib bormoqda. Keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligida tilga zamonaviy yondashish, antroposentrik, kognitiv tilshunoslikka oid tadqiqotlar ko‘lami kengayib bormoqda. Ayniqsa, konsept, freym, ssenariy hamda geshtalt terminlarining mohiyati, ularning tilda lisoniy voqelanishi masalalari chuqur o‘rganilmoqda. Bunday voqelanish jarayonida esa geshtalt, senariy, freym kabi kognitiv tuzilmalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikda ko‘p qo‘llaniladigan geshtalt terminining mohiyatini, uning lingvistik ahamiyatini ochish maqsad qilingan.*

Kalit so‘zlar: *zamonaviy tilshunoslik, geshtalt, matn, tilshunoslik, termin, nazariya, gap, idrok*

XX asrning birinchi choragida nemis psixologlari V.Keler, M.Vertxaymer, K.Dunkerlar fanga “geshtalt” terminini olib kirdi. Bu esa geshtaltpsixologiya sohasini shakllanishiga turtki bo‘ldi. Bu termin nemischa “gestalt” so‘zidan olingan bo‘lib, “obraz”, “struktura”, “yaxlit shakl” ma’nolarini bildiradi. Geshtalt nazariyasiga ko‘ra insonlar narsa-predmetlarning alohida qismlarini emas, balki ularni butun bir tizim sifatida idrok qiladi. Masalan, insonning yuziga qaralganda undagi burun, quloq, ko‘zlar ko‘zga tashlanmaydi – ular birgalikda yaxlit holda idrok qilinadi. Agar doira shakli chizilsa va uning bir qismi o‘chirib tashlansa ham, miyamiz uni bir butun holda idrok qiladi. Tilshunos olim J.Lakoff “Lingvistik geshtaltlar” nomli maqolasida bu hodisani til tizimini tadqiq etishga ham tatbiq etish mumkinligini aytadi. [J.Lakoff, 1981: 350-368]. Demak, voqelikni tushunish uni yaxlit idrok qilishdan boshlanadi. Bunda butundan bo‘lakka qarab boriladi. Idrok bunda muhim rol o‘ynaydi. Idrokning

asosiy xususiyati esa uning yaxlitligidir. Masalan, minbarda nutq soʻzlayotgan kishini idrok qilar ekanmiz, uning tashqi koʻrinishi, kiyimi, soch turmagi, oʻzini tutishi, maʼruzani qanday olib borayotganligi va boshqalarni umumlashtirib, u odamning ongimizda yaxlit obrazini yaratamiz.

Sh.Safarovning “Kognitiv tilshunoslik” risolasida “geshtalt tamoyillari”ning ayrimlari keltirib oʻtilgan:

1. Yaqinlik tamoyili: bir-biriga yaqin joylashgan elementlar oʻzaro bogʻliq holda idrok etiladi.
2. Oʻxshashlik tamoyili: bir-biriga monand elementlar yagona bir boʻlak yoki qism sifatida idrok qilinadi.
3. Yopiqlik tamoyili: idrok harakati berk (tugallangan) shaklga yoʻnaltiriladi.
4. Davomiylik tamoyili: alohida elementlar oʻrtasidagi uzilish kam boʻlsa, ular yaxlitlik sifatida idrok etiladi.

Bu tamoyillarning tilshunoslikdagi ifodasi matnlarda koʻrinadi. Matnning barcha qismlari: gaplar, soʻzlar, abzas bir-biriga yaqin va bogʻliq (yaqinlik tamoyili), matndagi gaplar bir-biriga oʻxshash holda tuziladi (oʻxshashlik tamoyili), matn chegaralangan va yagona gʻoyani ifodalaydi (yopiqlik tamoyili), matnning hamma birliklari bir-birini davom ettiradi va uzviy bogʻlanishda boʻladi (davomiylik tamoyili). [Sh.Safarov, 2006: 49]

Risolada keltirilishicha, butun va boʻlakning bu munosabati bevosita boʻlakning butunga “tobe” boʻlishida namoyon boʻladi. Bu tobelik quyidagi qonuniyatlarda oʻz aksini topadi:

1. Yagona bir element turli yaxlit tuzilmalar tarkibida turlicha idrok qilinadi.
2. Obrazning ayrim elementlari almashtirilsa-yu, lekin ular orasidagi munosabatlar oʻrami saqlansa, obrazning umumiy strukturasi oʻzgarmaydi.
3. Ayrim hollarda maʼlum bir boʻlaklar tushib qolganda ham yaxlitlik saqlanadi. [Sh.Safarov, 2006: 49]

Bu fikrlarning dalili sifatida matnni misol qilib olishimiz mumkin. Biror soʻz har xil matnlar tarkibida turlicha maʼnolar bildirishi mumkin va bu turlicha idrok qilishga sabab boʻladi. Masalan, “quloq” soʻzining turfa maʼnolari bir matnda boshqacha, ikkinchisida boshqacha idrok qilinishi mumkin (birinchi qonuniyat). Matn ichidagi qaysidir soʻz muqobiliga almashtirilsa va bu holat mazmunga taʼsir etmasa, yaxlitlik oʻzgarmaydi. Misol uchun “goʻzal” soʻzini “chiroyli” soʻziga almashtirish umumiy strukturani oʻzgartirmaydi (ikkinchi qonuniyat). Baʼzan qaysidir soʻz, gap boʻlaklari kabilar tushirib qoldirilsa ham, butunlik saqlanadi. Misol sifatida dialog matniga murojaat qilamiz. Gaplar tarkibidagi baʼzi boʻlaklarni tushirib qoldirib, toʻliqsiz gap shakliga keltirsak ham, yaxlitlik saqlanadi (uchinchi qonuniyat).

Uzoq vaqt tilshunoslikda matn qismlardan yigʻilishi, uning tahlilida esa gapdan nariga oʻta olmaslik kuzatildi. Matn tahlil qilindi deb, matndagi qaysidir birliklar oʻrganildi. Bunday holatdan chiqish uchun geshtaltga murojaat qilish oʻrinli, menimcha. D.Xudayberganova oʻzining doktorlik dissertatsiyada shunday yozadi: “Shuni taʼkidlash lozimki, matn yaratilishida geshtalt butunlik sifatida yuzaga kelsa, uning mazmuniy persepsiyasida boʻlakdan butunga jarayoni amal qiladi, yaʼni oʻquvchi tomonidan idrok etilgan alohida birliklar yaxlitlanib, matn tuzilmasini yuzaga keltiradi”. [D.Xudayberganova, 2015: 78] Demak, avvaliga tafakkurda geshtalt hosil boʻladi. Bunda butundan boʻlakka qarab boriladi. Uni oʻqiyotgan yoki anglayotgan odam esa boʻlakdan butunga qarab boradi va matnni yaxlit tuzilma sifatida tushunadi.

D.Xudayberganova fikrini davom ettirib: “Lingvistik geshtalt, asosan, yaxlit tushuncha yoki predmetni tavsiflovchi matnlarda kuzatiladi. Xususan, shaxsning tashqi yoki ichki qiyofasi, holati, biror manzara yoki predmetning koʻrinishini tasvirlovchi matnlarda ayni hodisa amal qiladi”, deydi. [D.Xudayberganova, 2015: 78] Misol uchun S.Ahmad qalamiga mansub quyidagi matnga eʼtibor qaratamiz.

Dala jimjit. Devor-toshlardan lip-lip alanga chiqadi. Qushlarning ham ovozi tingan. Qizigan tuproqqa bagʻrini berib yotgan musicha erinib kukulaydi.

Paxsa devorga chaplangan qovun urug‘ini ari talaydi. Ustiga oftob kelib qolgan sigir orqaga tisarilib arqonni uzmoqchi bo‘ladi. Yo‘l yoqasidagi qovun poliz chaylasining soya tarafida yotgan kattakon it tilini osiltirib hansiraydi. [S.Ahmad, 2015: 237].

Yuqoridagi matnda ijodkor tabiat tasvirini yaxlit holda ko‘rsatib bergan. O‘quvchi tafakkurida manzara butun holatda aks etishi uchun badiiy asarlarda geshtaltdan foydalaniladi. A.Qahhorning “Sarob” romanidan olingan quyidagi matnda tabiat manzarasi yaxlit holda tasvirlangan. [A.Qahhor, 2021: 31].

Qish qanday sekin-sekin, kishilarni achchiq, burunni achishtirib, ko‘zdan yosh chiqaradigan izg‘irinlariga ko‘niktira-ko‘niktira kelgan bo‘lsa, shunday sekinlik, o‘shanday ko‘niktirish bilan chiqib ketdi. Daraxtlarning tiniq yaproqlari kunduzgi tinimsiz harakatdan ko‘tarilgan changni o‘ziga qo‘ndirishni istamaganday, kuchsizgina esgan shabadada yelpinadi. Musichalar kukulaydi, daraxtlarda, devorlar ustida, bir-birini quvlashadi. Osmon ko‘m-ko‘k. Unda-bunda suzib yurgan oq bulut parchalari go‘yo qishdan qolgan xiralik-g‘uborni artib yuborganday. (A.Qahhor. “Sarob” romani)

Lingvistik geshtalt falsafiy matnlarni ham yaxlit holatda tushunishda namoyon bo‘ladi. Falsafiy matnlar yuqori saviyadagi abstrakt g‘oyalardir. Ulardagi mantiqiy rivojlanish va xulosalardan yaxlitlik hosil bo‘ladi. Bunday matnlar tarkibidan biror til birligini alohida olib tahlil qilib bo‘lmaydi. Hammasi bir-biriga izchil bog‘langan va yozayotgan faylasuf ham avval boshda o‘zi anglatmoqchi bo‘lgan mavzuning umumiy g‘oyasini tasavvur qiladi. I.Kantning “Ma‘rifat nedir?” essesidan olingan quyidagi parchaga e‘tibor qaratamiz.

Ma‘rifat insonning o‘z ixtiyori bilan tushib qolgan g‘o‘rlikdan chiqib olishidir. G‘o‘rlik – boshqa bir odamning yo‘rig‘isiz o‘z aqlini ishlata olmaslik. O‘z ixtiyori bilan g‘o‘r bo‘lishning sababi aqlning yo‘qligi emas, balki boshqa bir odamning yo‘rig‘isiz o‘z aqlini ishlatishga jur‘at va qat‘iyat etmasligidir. Sapere aude – o‘z aqlingni ishlatishga jur‘atli bo‘l! Ana shu ma‘rifat shioridir.

Tabiat allaqachon o‘zgalar yo‘rig‘idan ozod qilgan insonlarning aksariyati dangasalik va qo‘rqoqliklari bois bir umr bajonidil g‘o‘rlikicha qoladi.

Ana shu sababli boshqalar uchun ular ustidan vasiylik qilish osondir. G‘o‘r bo‘lish qanchalar qulay! Agar men uchun fikrlaydigan biror kitob bo‘lsa, vijdonim o‘rnini egallaydigan ruhoniy maslahatgo‘y kimdir bo‘lsa, turmush tarzini belgilab beradigan shifokorim bo‘lsa va hokozolar bo‘lsa, o‘zimni qiynab o‘tirmayman. Haqini to‘lay olsam bas, fikr qilishimga hojat yo‘q, bunday boshog‘riq ishni men uchun boshqalar jon deb bajaradi. Mutlaq ko‘pchilik insonlar (shu jumladan, nozik jinsning barchasi) ulg‘ayishni nafaqat qiyin, balki juda xavfli deb biladi. Bu yumush endi ularning ustidan nazoratni bajonidil o‘z bo‘yniga olgan vasiylarning ishidir. Vasiylar xonakilashtirilgan hayvonlari ovozi o‘chirib, bu itoatkor jonzotlarni ehtiyotkorlik bilan o‘zlarining yordamisiz bir qadam ham bosa olmaydigan qilgach, ularga mustaqil yursalar qanday xavfga yo‘liqishlarini ko‘rsatadilar. To‘g‘ri, bu xavf u qadar katta emas, bir necha marta qoqilgach ular o‘zlari yurishni o‘rganadi. Ammo bu holat ularning qat‘iyatini sindiradi, o‘z yo‘lida davom etishdan qaytaradi. [I.Kant, 1784: 1]

Matndan ko‘rinadiki, ma‘rifat yaxlit holda tasvirlanmoqda. Demak, falsafiy matnlarda ham lingvistik geshtalt amal qiladi. Bu o‘rinda qisqa hikoyalarni ham e‘tirof etishimiz kerak. Ulardagi qisqalik lingvistik geshtaltning yaqqol ko‘rinishi desak, adashmagan bo‘lamiz. Zero qisqa hikoyalar yozuvchining butun boshli katta g‘oyasini aks ettirishga qaratilgan. Alan Mayerning “Omadsiz” hikoyasi buning yorqin misolidir:

Men butun tanamda kuchli og‘riq bilan uyg‘ondim. Ko‘zimni ochganimda karavotim yonida hamshira turardi.

– *Mister Fujima, – dedi u – omadingiz bor ekan, siz ikki kun avval Xirosimaga tashlangan atom bombasidan omon qoldingiz. Endi gospitaldasiz, xavotirlanishingizga asos yo‘q.*

Men zo‘rg‘a savol berdim:

– *Qayerdaman?*

– *Nagasakida, – dedi hamshira. [Drabllar, 2018: 4]*

Ayon bo‘lmoqdaki, “omadsiz” degan so‘zning yaxlitligi qisqa, ammo o‘ta izchil yozilgan matn orqali anglashilmoqda.

Umuman olganda, geshtalt tilshunoslikda matnning tadqiqi uchun muhim hisoblanadi. Lingvistik geshtalt ko‘pincha matnga xos va uning tuzilishida katta rol o‘ynaydi. Bu esa uning lingvistik ahamiyatini batafsil tushunishga imkon beradi. Geshtalt nazariyasi matnlarni yaxlit holda tadqiq qilish uchun muhim asos hisoblanadi. Lingvistik geshtalt tamoyillari til birligi va tuzilmalarning yaxlit ko‘rinishini yaratishga xizmat qiladi. Matnning yaxlitligi va mantiqiy izchilligi o‘quvchida chuqur ta’sir qoldiradi hamda mazmuni to‘liq anglash imkonini beradi. Ayniqsa, qisqa hikoya va falsafiy matnlarda geshtalt tamoyillari orqali muallifning chuqur fikrlari va g‘oyalari qisqa, lekin samarali shaklda aks ettiriladi. Geshtalt tilshunoslikda matnning semantik yaxlitligini ta’minlash bilan birga, uning strukturasi tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, Immanuel Kantning ma’rifat haqidagi fikrlari matnning falsafiy mazmunini to‘liq ifodalashda geshtaltning kuchli vosita ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, qisqa hikoyalarda geshtalt tamoyillari yordamida keng g‘oyalarni ixcham ifodalash orqali matnning samaradorligi oshiriladi. Shu bois geshtalt tamoyillarini lingvistik jihatdan tadqiq qilish nafaqat matn tuzilishi va mazmunini yaxshiroq tushunish imkonini beradi, balki ularni tahlil qilishning yangi yo‘llarini ham ochib beradi.

Shunday qilib, lingvistik geshtalt bu – nafaqat tilning tuzilishiga, balki mazmuniy va semantik tomonlariga ham yangi yondashuvlarni keltirib chiqaradigan boy va istiqbolli ilmiy maydon hisoblanadi. Bu tamoyillarni yanada chuqurroq o‘rganish zamonaviy lingvistika va boshqa fanlar uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sh.Safarov. Kognitiv tilshunoslik. Sangzor nashriyoti, Jizzax – 2006. 92 bet
2. Лакофф Дж. Лингвистические гештальты // Новое в зарубежной лингвистике. Вып X. – М.: Прогресс, 1981. – С. 350-368.
3. D. Xudayberganova. O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning antroposentrik talqini. Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. Toshkent – 2015. 78-bet

4. I. Kant. An Answer to the Question: “What is Enlightenment?”. (Xurshid Yo‘ldoshev tarjimasi) 1784. 7 bet
5. S.Ahmad. “Ufq” trilogiyasi. “Sano-standart” nashriyoti, Toshkent – 2015. 631 bet
6. A. Qahhor. “Sarob” romani. “Zukko kitobxon” nashriyoti. Toshkent – 2021. 302 bet
7. Drabllar. Dunyoning eng kichik hikoyalari. “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2018. 25 bet